

## TALABADA PEDAGOG TOMONIDAN DIZAYNERLIK KASBIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA QADRIYATLARNING O‘RNI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7558494>

**Gulzoda Ernazarovna Umarova**  
MRDI instituti Libos dizayni kafedrası  
katta o‘qituvchisi  
gulzodaodiljonrayhona@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Maqolada, talabada pedagog tomonidan dizaynerlik kasbiy faoliyatini shakllantirish jarayonida qadriyatlarining o‘rni va mohiyati bayon etilgan. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta‘lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalash muallif tomonidan ta‘rifi berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, ong, dizayn, shaxs, motivatsiya, , pedagogika, metod, rivojlanish

### ABSTRACT

*In the article, the role and essence of values in the process of forming the professional activity of a designer by a student pedagogue. According to it, the educational environment, pedagogical conditions, education and upbringing process fully realize the student's personal potential, develop his abilities, ensure his maturation as a person, and enrich his thinking and worldview. This type of education is defined by the author as the training of qualities such as independence, initiative, responsibility, as well as independent, creative and critical thinking skills in students.*

**Keywords:** education, consciousness, design, personality, motivation, pedagogy, method, development

### KIRISH

Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. Globallashuv sharoitida ta‘lim shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali

mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bugungi tezkor davr talabalarni ham qisqa muddatda va asosli ma‘lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur shartsharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Ta‘lim jarayonida o‘qitish muhitini qadriyatlar asosida rivojlantirish, talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta‘lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta‘limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, aynan ta‘limdagi qadriyatlarni talabaga yo‘naltirilganligi, ta‘limda o‘qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta‘lim berish jarayonida ma‘lum ta‘limiy qadriyatlarni, talabaga ta‘lim va tarbiya berishda foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat‘iy rioya etishi kerak: talabaning kiritilgan yangiliklarni qabul qilishi; o‘rganilayotgan materialga diqqat bilan ahamiyat berishi; yaratilgan muammoli vazifa va topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalariga qaratilishi lozim.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bunday tizimdan foydalanilganda talabalarda barqaror motivatsion kayfiyatlari asta-sekin shakllanadi. Qayerda amaliyot jarayoni to‘g‘ri ketma-ketlik shakllangan bo‘lsa, ko‘rsatgich impulslarining tabiiy kuchayishiga va rivojlanishiga asoslangan, rivojlanishning asl mazmunida boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilgan metasub‘ektni bilish jarayoni deb bimalol misol qilib olishimiz mumkin. Bu bosqichning asosiy vazifalaridan biri talabaga milliy g‘ururni qadriyatlar asosida rivojlantirish va akme shaxsni shakllantirishdir. Dizayn faoliyatining turli yunalishlariga nisbatan talabaning shaxsiyati va shu bilan birga, talabaning qaysi yo‘nalishga moyilligi, dizayner faoliyatining o‘ziga xos turi (badiiy ijod, loyihalash, tadqiqot faoliyati va boshqalar), qa‘bul qilish qobiliyati o‘zinning moyilligi va qobiliyatiga asoslangan tanlov juda ham muhimdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ma‘lumotlar biz tomonimizdan ya‘ni pedagog tomonidan vosita sifatida ta‘lim oluvchiga vosita sifatida beriladigan bo‘lsa, dizayner o‘z faoliyati davomida o‘zini o‘zi shaxs sifatida shakllantirishi va rivojlanishini belgilashini ko‘rishimiz mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, tajribaning ushbu bosqichidagi asosiy nuqta ta'lim jarayonining unumli va foydali bo'lishida talabning faol o'zlashtirishiga qaratilgan metod va vositalarni tegishli qadriyatlar asosida rivojlantirish dizaynerning kasbiy faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu borada shuni ham takidlash lozimki, o'quv jarayonini inson psixologiyasining ham roli haqida to'xtalib o'tishimiz lozim va shart.

Sababi inson temperamentidan kelib chiqqan holda, tegishli qoidalar asosida talabaga bilim olish, shakllanish, berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish va o'rganish motivatsiyasini bera olish pedagogning zimmasidadir. Sababi pedagog shaxsni shakllantirish jarayonida o'ziga xos ichki harakatlantiruvchilarini shakllantirish (motiv), shaxsning qadriyat yo'nalishlariga hissa qo'shishga undaydigan emotsiyalarni yetkazishi lozim.

## **REFERENCES**

1. INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: loyihalar uslubi – ta'lim sifatini oshiruvchi texnologiya sifatida, 2012.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015 y.
3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
4. Yunusxodjaeva, S. A. (2019). YOSH RASSOMNI O'QITISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 1(4).
5. Yunusxadjaeva, S. A. (2020). KASB TA'LIMI YO'NALISHIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA KASBIY BILIMNI CHUQUR O'ZLASHTIRGAN MUTAXASSISLARNI TARBIIYALASH VA MILLIY LIBOSLARIMIZGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIK JIHATLARI. *PEREKRYOSTOK KULTURBI*, 2(4).
6. Ernazarovna, U. G. (2022). THE FORMATION OF THE DESIGN TERM AND HISTORY OF DEVELOPMENT. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 96-102.
7. Nishanova, S. D. (2022). ZAMONAVIY PODIUMGA 80-YILLAR MODASINING QAYTIB KELISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 189-195..
8. UMAROVA, Z. KOSTYUM DIZAYNI TA'LIMINI MODERNIZATSIYALASHNING AKTUAL TAMOYILLARI. *O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2020,[1/2] ISSN 2181-7324.